

Zulfiya Marufova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"O'zbek va jahon filologiyasi" kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: zulfiyaxon2018@gmail.com*

BADIIY MATNLARDAGI GO'ZALLIK TUSHUNCHASINING

GENDER TALQINI

***Annotatsiya.** Maqolada "go'zallik" konseptining badiiy asarlardagi talqini, bu mavzuda tilshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, go'zallik ifodasida gender xoslanganlik masalasi o'zbek badiiy yozma adabiyoti misolida tahlilga tortiladi.*

***Kalit so'zlar:** go'zallik, gender andaza, milliy-estetik baho, verballashuv, etalon, konseptualizatsiya, ideal.*

GENDER INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF BEAUTY IN ARTISTIC TEXTS

***Abstract.** The article discusses the interpretation of the concept of "beauty" in works of art, research conducted by linguists on this topic. Also, the issue of gender specificity in the expression of beauty is analyzed using the example of Uzbek literary literature.*

***Keywords:** beauty, gender standard, national-aesthetic assessment, verbalization, standard, conceptualization, ideal.*

Go'zallikni idrok qilish va estetik baho mezoni milliy-etnik xususiyat bo'lib bir xalq uchun go'zal hisoblangan o'ldhovlar boshqa xalq uchun mutlaqo qimmatga ega bo'lmashligi mumkin. "...Insonning olamni idrok etishi jarayonida yuzaga keladigan turli konseptlarning kognitiv modellari ham etnomadaniy xususiyatlardan butunlay xoli emasligini e'tirof etish lozim. Ko'pchilik olimlar, qayg'u, iztirob, xafagarchilik, g'am, yakkalik tuyg'ularining umumbashariy ekanligini qayd etishib, ularni ifodalovchi lisoniy birliklarni sinonimlar deb hisoblashni ma'qul ko'radilar [9, 18-b]. Go'zallik – obyektidagi aspektlar uyg'unligini va mukammalligi ifodalovchi estetik kategoriya bo'lib, kuzatuvchiga ijobiy emotsiya, zavq berishi bilan

xarakterlidir. Go'zallik madaniyatning eng muhim kategoriyalaridan sanaladi. Asrlar mobaynida har bir millatning o'ziga xos milliy-estetik didi, dunyoqarashlari, go'zallikka bo'lgan munosabati, tasavvur va talablari shakllanib borgan.

Dunyo tilshunosligidagi "go'zallik" konseptiga bag'ishlangan tadqiqotlarda, asosan, tabiat go'zalligi, ayol va erkakka xos go'zallik belgilari, shuningdek, bolalar go'zalligi haqida so'z boradi. Rus tilshunosi A.B.Molchanova L.Pasternak ijodidagi go'zallikning badiiy konsepiyasini tahlil qilar ekan, adib uchun tabiiy go'zallik va ijod mahsuli (san'at asari) bo'lgan go'zallik o'rtasidagi farq ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi [5, 7-b]. K.V.Sboroshenko zamonaviy poeziyada "go'zallik" konseptining metaforik reprezentatsiyasi haqida so'z yuritir ekan, she'riy matnlarda ideallashtirilgan mukammal obyektlarni ikki tematik guruhga ajratadi: inson (ayol, erkak, bola) go'zalligi va tabiat go'zalligi (manzara, jonivorlar, tabiat hodisalari, yil fasllari). Go'zallik idealizatsiyasining asosini esa ayol go'zalligi bilan bog'liq modellar tashkil etishini qayd etadi. Olim rus va italyan poeziyasida go'zallikni verballashtiruvchi metaforik modellarni tahlil qilar ekan, ayol go'zalligi bilan bog'liq modellar 11 ta, erkak go'zalligi bilan bog'liq 1 ta va bola go'zalligi bilan bog'liq 2 ta model aniqlanganini e'tirof etadi [8, 17-b]. I.Okuneva o'z tadqiqotida rus va ingliz tillaridagi "go'zallik" konseptining namoyon bo'lishi haqida so'z yuritib, har ikkala tilda ham ayol, erkak va bola, shuningdek, tabiat, san'at asarlari go'zalligi bilan bog'liq tahlillarni keltiradi. Har ikki tilda ham ayol go'zalligini verballashtiruvchi detallar boshqalariga nisbatan ko'proq ekanligi leksik-semantik, frazeologik, metaforik reprezentatsiyalar misolida dalillanadi. M.V.Zimina ham o'z dissertatsiyasida amerika xalqi tilidagi "go'zallik" konseptining ifodalanishi haqida fikr yuritib, "o'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra eng go'zal deb tan olinganlar ichida ayollar va bolalar go'zalligi birinchi o'rinda turishi"ni yozadi [3, 54-b]. N.Boymatovanning ishida tojik va ingliz tillaridagi "go'zallik" konseptining semantik maydoni tahlilga tortiladi. Har ikkala tildagi go'zallikni voqelantiruvchi antroponimlar tasniflanadi, ular tojik tilida 10 ta guruh va 117 ta nom, ingliz tilida 3ta guruh va 35 ta nom aniqlanganini qayd etiladi. Shuningdek, tashqi va ichki go'zallik mutanosibliigi masalalari paremiyalar tahlilida o'rganiladi. Ingliz tilida

ichki, ma'naviy barkamollikning ahamiyati kattaroq ekanligi aniqlanadi [2]. N.K.Boymatova tojik va ingliz lingvokulturasida go'zallik konsepti semantik maydonlarini qiyoslar ekan, g'arb va sharqqa xos go'zallik mezonlarini tahlilga tortadi. M.Rahmatova esa o'z izlanishlarida o'zbek, ingliz va tojik milliy madaniyatida "Go'zallik" konseptining lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilar ekan, ingliz, o'zbek va tojik tillarida ifodalangan estetik bahoning o'ziga xos jihatlarini qiyosiy-chog'ishtirma tahlil asosida yoritib beradi, olamning lisoniy konseptlashtirilishida ingliz, o'zbek va tojik xalqlarining milliy mentalitetlaridagi o'xshash va farqli jihatlarni solishtiradi, olamning umumiy lisoniy manzarasi fonida uch til lug'at fondlarining boyish yo'llarini aniqlaydi, har uchala tilda ifodalangan "go'zallik" konsepti semantikasini leksik, frazeologik birliklar, shuningdek, maqollar tahlili asosida tasniflash va qiyoslaydi, qiyoslanayotgan tillarning etnik jihatlarini hisobga olgan holda leksik birliklarning milliy-madaniy va lisoniy xususiyatlarini aniqlaydi, ingliz, o'zbek va tojik tillarida ifodalangan "go'zallik" konseptining badiiy va diniy matnlar kontekstlaridagi universal va farqli jihatlarini asoslab beradi [7].

Ammo sharq va g'arb go'zallik etalonlarida mushtarak jihatlar ham mavjud bo'lib, ularni umuminsoniy baho qadriyatlari deyish mumkin. Har qanday tilda "go'zallik" konseptining leksik-semantik tarkibiga kiruvchi "zavq beruvchi", "hayratga soluvchi", "benuqson", "o'ziga tortuvchi", "yoqimli" singari universal semalar insoniyatning estetik madaniyatini bir nuqtada birlashtiruvchi konseptotsentrik maydonni hosil qiladi.

"Go'zallik" konseptining mazmuniy strukturasini uch guruhga: erkaklar, ayollar va tabiat go'zalligi guruhlariga ajratish prinsipini o'zbek mumtoz adabiyotiga ham tatbiq etish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, barcha xalqlar va barcha davrlarga xos bo'lgan go'zallik talqinida Ayol siymosi yetakchi o'rin tutadi. Ammo lingvopoetikada erkak go'zalligining gender andazalari ham shakllangan bo'lib, ularda baquvvat jism, kuch-qudrat, bahodirlik va mardlik sifatlari mujassam bo'ladi. Adabiyotimiz tarixiga nazar tashlasak, turkiy xalqlardagi erkaklar go'zalligining lingvopoetik talqini ildizlari V–VII asrlardagi

qadimiy yodgorliklarga borib taqaladi. Tarixan bizdan ancha olis davrda – ikkinchi turk xoqonligi hukm surgan (taxminan 712-716 yoki 720-726 yillar) vaqtda toshga zarb etilgan bu yozuvlarni o'qib, ularda aks etgan voqealarni xayolda gavdalantirishga urinilsa, beixtiyor, eng avval tasavvur oynasida shiddatli, yovqur bahodir qiyofasi paydo bo'ladi. Bu – sarkarda, xoqonning yaqin maslahatgo'yi To'nyuquqdir. El orasida hurmat-obro'si baland bo'lgan, hatto qo'shni qabila va elatlarda ham nomi mashhur bo'lgan To'nyuquq o'z hayotini xalqi himoyasi, turkiylar saltanatining mustahkamlanishiga bag'ishlagan. O'sha davr urfiga ko'ra, aslzoda xonadon farzandi o'laroq Tabg'ach davlatida tarbiyalangan To'nyuquq yuksak aql-u zakovat va harbiy salohiyat egasi edi. O'z davrining bilimdon, dono davlat arbobi, mohir sarkardasi sanalgan bu shaxs o'z tarixini bitiktoshga o'yib yozdirgan. Bularni o'qir ekansiz, ko'z o'ngingizdagi bahodirni nafaqat yovqur, botir jangchi, qattiqqo'l, taptortmas va tajribali sarkarda, balki o'z davrining bilimdon kishisi sifatida taniy boshlaysiz. To'nyuquq askarini yovga qarshi dadil boshlab boradi. Tengsiz jangda uning lashkari son jihatdan o'zidan ko'p bo'lgan dushman qo'shinini tor-mor qilib, g'alaba bilan qaytadi [1]. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida keltirilgan Alp Er To'nga siymosida ham haqiqiy mard va bahodir erkak sifatlari mujassam. "Alp Er To'nga (arslon, sher, yo'rbars)ga tenglashtirilgan jangchi, turkiylar davlatining asoschisi. (mil. avv. V asr) Maday bahodir ayyorlikni bilmaydigan to'g'ri so'zli sodda va ishonuvchan farzand edi. Yengilmas sarkarda bo'lib yetishganda ham shundayligicha qoldi. Buyuk sarkarda o'z dushmanlari va itoat etmagan qabilalarga nisbatan shafqatsiz, biroq do'stlari va o'z fuqarosiga nisbatan saxiy va mard xoqon edi" [1]. To'nyuquq va Alp Er To'ng'a timsolini turkiy xalqlar uchun erkak go'zalligining etaloni sifatida qabul qilish mumkin.

Alisher Navoiy asarlarining qahramonlari tavsifida ham erkak go'zalligining poetik talqinlari mavjud. Masalan, Farhod obrazi komil inson timsoli bo'lib, undagi tashqi go'zallik ichki sifatlarining benuqsonligi va xulq-atvorining mukammalligi bilan uyg'unlashib ketgan.

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani qahramoni Otabek ham “og'ir tabiatlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qo'shliq va endigina murti sabz urgan bir yigit” bo'lishdan tashqari mard, jasur, to'g'riso'z va halol yigit. Bu obrazda ichki va tashqi go'zallik uyg'unlashib ketgan va uni o'zbek yigitining namunaviy timsoli deyish mumkin. B.Qodirova “go'zal” so'zining ma'nodoshi bo'lmish “suluv” leksemasi til tarixining ma'lum bir davrlarida “suluk” shaklida yigitlarga nisbatan ham ishlatilganini ta'kidlaydi: “Qayg'urma, Oftob, – dedi, kuyaving bunchalik suluk bo'lsa, gap-so'zda tengi bo'lmasa...” (O'K, 48). Hozirda esa semantik torayish natijasida gender xoslanishga uchragan. Ya'ni faqat qizlarga nisbatan ishlatiladi. Bu holatni sohibjamol so'zi misolida ham kuzatish mumkin. “Majolisun-nafois”da Mavlono Moniyning tashqi ko'rinishi uning ichki dunyosi bilan mutanosib ekanini sohibjamol va zarif so'zi orqali ta'riflaydi: “Mavlono Moniy sohibjamol va zarif va ra'no yigitdur”. Bu o'rinda o'zbek tili belgi bildiruvchi leksemalaridagi gender xoslanish semantik torayish omili sifatida maydonga chiqadi. Muallif Sohibjamol va zarif semantik qatorida kelayotgan ra'no leksemasi ham sifatlovchi vazifada kelgani, hozirgi o'zbek tilida mazkur leksema semantikasida shaxs

belgi-xususiyatini ifodalash semasi iste'moldan chiqqanini ta'kidlaydi. Bu xususiyat turkiy tillarga, xususan, o'zbek tiliga xos lingvistik jarayondir”

[4, 14–15-b]. Sohibjamol so'zi ham ma'lum davrda gender jihatdan farqlanmagan, har ikki jins vakillarini sifatlab kelgan. Demak, erkak go'zalligining sharqona etalonida ham “ulug' gavda”, “qora qosh”, “qora ko'z” kabi tashqi ko'rinish go'zalligi bilan, mardlik, jasurlik, to'g'rilik, vafodorlik singari ichki sifatlar mutanosibligi talab etiladi. Shuningdek, erkaklar ta'rifida Rustami doston, Alpomish singari afsonaviy timsollar bilan qiyoslanuvchi estetik baho ifodalari ham mavjudki, ular orqali, asosan, jismoniy sifatlar ifoda etiladi. Erkak jinsidagi odamlarga nisbatan qo'llaniladigan “polvon” leksemasi “lingvokulturema sifatida o'zbek xalqiga xos “alp qomat”, “keng elka”, “baquvvatlik” belgilarini ifoda etadi [4, 15-b]. Yusuf alayhissalom “Erkaklar go'zalligi funksionallik kasb etib, ularning baquvvatligi, bo'yining balandligi alohida e'tiborga olingan” [7, 19-b]. Erkaklarning

gender andazalari shakllanishida quyidagi fazilatlar katta o'rin tutadi: sadoqat, tartib-intizomlilik, mardlik, jasorat, iroda kuchi, aql-zakovat va jamiyatdagi ijtimoiy mavqe: yelkasi (yoki kifti) yerga tegmagan polvon, qo'rquv bilmaydigan oliyjanob odam [6, 16-b]. Bu sifatlar, o'z navbatida, har bir davrning yozma manbalarida ham o'z aksini topgan.

“She'riyatda go'zallik konseptualizatsiyasi go'zallik haqidagi tasavvurlarning mualliflik assotsiatsiyalari mahsuliga, shoirning atrofidagi narsa va hodisalar go'zalligi haqidagi subyektiv tushunchalariga asoslangan” [8, 8-b]. Shoir uchun go'zallik konsepti interpretatsiyasi assotsiativ-subyektiv xarakterga ega bo'lgan belgidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева Х. Мardlik, jasorat va or-nomus.
<http://qashqadaryogz.uz/read/mardlik-zhasorat-va-or-nomus>
2. Бойматова Н. Семантическое поле концепта «Красота» в таджикской и английской лингвокультурах. Автореферат дисс. на соиск. канд. фил. наук. Душанбе –2019.
3. Зими́на М. Специфика представления концептов. Beauty, Home, Freedom в американской языковой картине мира. Дисс. на соиск. канд. фил. наук. Нижний Новгород, 2018. – с-54.
4. Кадирова Б. Белги билдирувчи лексемаларнинг лингвокультурологик хусусияtlari. Фил. фан. б. ф. д. (PhD) дисс... автореферати. Тошкент – 2019. – 15-16-b.
5. Молчанова А. Художественная концепция красоты в творчестве Б. Пастернака: дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 2010. – с-7.
6. Nasrullaeva N. Ingliz va o'zbek tillarida olamning frazeologik manzarasida gender konseptlarining shakllanishi. Filologiya fan.doktori diss.avtoreferati (DcS). Toshkent, 2018. –16-b.
7. Rahmatova M. Ingliz, o'zbek va tojik milliy madaniyatida “Go'zallik” konseptining lisoniy xususiyatlari. Fil. fan. b. f. d. (PhD) diss... Buxoro, 2019.

8. Сборошенко К. Метафорическая репрезентация концепта «Красота» в современной поэзии. Автореферат дисс. на соискание ученой степени кандидата филол. наук. Челябинск, 2009. – с-8.

9. Sulaymonova N. Olam lisoniy manzarasining baholi shakllanishi. Xorijiy filologiya №2, 2021 yil. – 18-b.

10.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Foydalanuvchi>